

## Payg‘ambar Ibrohim alayhissalomning qissasi: Butlarni kim sindirdi?



00:06 / 30.09.2018 24244

Aziz va qadrli bolajonlar! Biz sizlarga Abul Hasan Ali Hasaniy an-Nadaviyning “Payg‘ambarlar qissasi” nomli asarini basma-bas taqdim etib boramiz. Ma’lumki, barcha tengqurlaringiz kabi siz ham qissa-yu hikoyalarga, ularni eshitish va o‘qishga juda-juda qiziqasiz. Sizga, barcha musulmon farzandlariga atab Payg‘ambarlar tarixi yengil uslub bilan bolalar tilida bayon etilgan. Kitob muallif tomonidan imkon qadar bolalar tili va tabiatiga yaqin qilib yozilgan. Sodda, yengil, tushunarli bo‘lishiga, jummalarning takror-takror kelishiga alohida e’tibor berilgan.

Mazkur asarni Anvar Ahmad arab tilidan tarjima qilganlar.

Bu ishimizda Alloh taoloning O‘zi madadkor bo‘lsin!

## **Butlarni kim sindirdi?**

### **1**

#### **Butlar sotuvchisi**

Ko'p va juda ko'p kunlar avval bir qishloqda juda mashhur kishi bo'lgan edi. Bu kishining ismi Ozar edi. Ozar butlarni sotar edi. Bu qishloqda bir uy bo'lib, u juda katta edi. Bu uyda butlar bo'lib, ular juda ham ko'p edi. Odamlar mana shu butlarga sajda qilar edilar. Ozar ham mana shu butlarga sajda qilar edi. Ozar ham mana shu butlarga ibodat qilar edi.

### **2**

#### **Ozarning bolasi**

Ozarning juda ham aqlli bir bolasi bor edi. Bu bolaning ismi Ibrohim edi. Ibrohim odamlarning butlarga sajda qilayotganlarini ko'rdi. Odamlarning ana shu butlarga ibodat qilayotganini ko'rdi. Ibrohim bilar ediki, albatta butlar toshdan edi. Va yana bilar ediki, albatta butlar gapirmas edi hamda eshitmas edi. Va bilar ediki, butlar zarar bermas hamda foyda bermas edi. Va ko'rar ediki, albatta pashshalar unga qo'nar edi, butlar esa ularni hayday olmas edi. Va yana ko'rar ediki, butlarning ovqatini sichqon esa, buni man qila olmas edilar. Ibrohim o'ziga o'zi: "Nima uchun odamlar butlarga sajda qiladilar?" deb aytar edi. Va yana: "Nima uchun odamlar butlardan (hojatlarini) so'rashadi?" deb o'zidan so'rar edi.

### **3**

#### **Ibrohimning nasihati**

Ibrohim otasiga aytar edi: "Ey otajon! Nima uchun bu butlarga ibodat qilasiz?"

Ey otajon! Nima uchun bu butlarga sajda qilasiz?

Ey otajonim! Nima uchun bu butlardan (hojatingizni) so'raysiz? Bu butlar gapirmaydi va eshitmaydi-ku! Bu butlar zarar ham foyda ham bema'ni-ku! Nima uchun ularning oldiga taom va ichimlik qo'yasiz?

Ey otajon! Bu butlar yemaydi ham, ichmaydi ham-ku!".

Ozar bundan g'azablandi (va shunday bo'lsa-da), Ozar buni anglamas edi. Ibrohim qavmiga nasihat qilar edi. Ko'pchilik odamlar unga g'azab qilib, uni tushunishmas edi. Ibrohim o'ziga o'zi: "Odamlar ketishganidan keyin men butlarni sindiraman. Shundagina odamlar tushunadilar.